



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
IMOM BUXORIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

IMOM BUXORIY SABOQLARI

Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnal



25
2000-2025 YOSHDA
JURNAL

2025/2



www.bukhari.uz

Шовосил ЗИЁДОВ. Ибн Надимнинг “Фихрист” асарида илк кутубхоналарга оид маълумотлар..... 2

ВАТАНИМИЗ ТАРИХИ

Отабек МУҲАММАДИЕВ. Хуросон маволийлари ва уларнинг ҳадис илми ривожига ўрни.....4

Мирсодиқ ИСҲОҚОВ, Бобир ҒОЙИБОВ. Сўғдий ёзма ёдгорликлар график фондини яратиш масаласи.....10

Sevinch ULASHOVA. O’rta Osiyo hududiga mo’g’ullar boshliq urug’-qabilalarning ko’chib kelishiga doir ziddiyatlar va yangicha qarashlar15

Баҳодир МУСАМЕТОВ. Қорахонийлар даврида аҳолининг ижтимоий қатламлари (Юсуф Хос Ҳожибнинг “Қутадғу билиг” асари асосида).....21

Санжарбек ДЖУМАНОВ. Ўзбекистон тараққиёти-нинг янги босқичида соғлиқни сақлаш тизими ҳуқуқий асосларининг такомиллаштирилиши.....25

Жонибек ЖУМАЕВ. Самарқандлик жадид алломалар фаолияти тарихидан.....28

A’zamjon MAMADJANOV. Muhammad Vafo Karmingning “Tuhfat al-xoniy” asari Muhammad Rahimxon faoliyatiga doir muhim manba sifatida.....32

Mahliyo A’ZAMOVA. Turkiston atamasining tarixdagi ba’zi manbalarda qo’llanishi.....35

Шерзодхон МАҲМУДОВ. Қўқон-Хива ўртасидаги элчилик алоқалари (19-юзйиллик)39

АҲДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ

Дилором САЛОҲИЙ. “Қаро кўз” васфи.....44

Махмуд АБДУРАХМАНОВ. Абу Довуднинг ҳаёти, илмий мероси ва унинг ҳадис илми ривожига қўшган хиссаси.....47

Ойбек ҲОШИМОВ. Шаббир Аҳмад Усманийнинг илм ва сиёсат майдонидаги фаолияти таҳлили.....51

Шокир ШОВКАТОВ. Абул Юср Паздавийнинг илмий фаолияти таҳлили.....53

Жобир ЭЛОВ. Имом Бухорий дунёқараш шаклланишида муҳтнинг таъсири.....56

НОДИР МАНБАЛАР

Бекзодбек МУХТАРОВ. Носируддин Самарқандийнинг “Риёзатул ахлоқ” асарида ижтимоий одоб-ахлоққа доир масалалар таҳлили.....61

Ихтиёр АБДУРАХМОНОВ. “Шарҳ ат-Таъвилот” асарининг “Таъвилот ал-Қуръон”дан ажралиб турувчи ўзига хос хусусиятлари.....64

Абдурасул АБДУЛЛАЕВ. Фахриддин Розий ва “Мафотиҳул ғайб” асарининг бугунги кундаги аҳамияти.....69

Bahodir MIRZAYEV. Mustag’firiyning “Fazoilul Qur’on” asarida hadis kitobat qilish usullari.....71

Бобирмирзо БОТИРОВ. Бурҳониддин Марғионий ҳаёти ва “Ал-Ҳидоя” асарининг тарихий аҳамияти...74

ИСЛОМ ВА ҲОЗИРГИ ЗАМОН

Qobil ZOHIDOV. Ilk arab-musulmon davlatchiligi: soliq siyosati va uning iqtisodiy barqarorlikka ta’siri.....82

Ibrohim NIGMATULLAYEV. O’zbekiston shia jamoalarida “Ashuro” marosimi va uning o’ziga xos jihatlari.....85

Бехзод СОИПОВ. Диний бағрикенглик сиёсатини олиб бориш бўйича ривожланган давлатлар тажрибаси.....89

ИЖТИМОЙ ИНСТИТУТ

Жаҳонгир ЗАЙНАЛОВ, Ҳафизуллох БОЙҚОБИЛОВ. Зиёрат туризмни ташкил этишнинг ҳуқуқий асослари.....92

Хуршид ТОШОВ. Онгни манипуляция қилишнинг ижтимоий-психологик концепциялари.....95

Тунис ХОЖИЕВ. Ўзбекистон ижтимоий тараққиёт моделининг ўзига хос хусусиятлари.....100

ФАЛСАФИЙ МУШОҲАДАЛАР

Lalixon MUXAMEDJANOVA. Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar.....105

Мўмин ҲОШИМХОНОВ. Алишер Навоий Шарқ Ренессансининг йирик намояндаси.....108

Tamara XO’JANOVA. Yoshlar tushunchasi va uning falsafiy paradigmalari talqinlari.....112

Davron XO’JAYEV. Alisher Navoiy adolat konsepsiyasi shakllanishining nazariy-g’oyaviy ildizlari.....115

Laylo USMONOVA. O’rta asrlarda Sharq va G’arbda ilmfan rivojlanishining ensiklopedik xususiyatlari.....118

Рауф БЕКБАЕВ. Синтез традиционализма и ислама в философских взглядах Сейида Хоссейна Насра.....122

Ulug’bek BEKPO’LATOV. Islom ta’limotida simmetriya va dissimetriya masalalarining falsafiy tahlili.....125

Nodirbek QORABOYEV. Akademik Said Shermuhamedov – O’zbekistonda madaniyat falsafasi maktabi asoschisi..128

Аброрбек РАҲМОНОВ. “Янги Ўзбекистон”да ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш: ижтимоий-фалсафий таҳлил.....132

ЁШЛАР – КЕЛАЖАГИМИЗ

Бахтиёр ТУРСУНОВ. Миллий маънавий мерос тарбия омили сифатида.....136

Рустам ЮЛДАШЕВ. Янги Ўзбекистонни барпо этишда ёшлар дунёқарашини шакллантиришнинг фалсафий методологик асослари.....138

МАЪНАВИЙ ТАҲДИДЛАРГА ҚАРШИ КУРАШ

Habibullo SADIBAQOSEV. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida xitoyning geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyati.....141

Suhrob BO’RANOV. Islom omilining “Tolibon” harakati paydo bo’lishiga ta’siri.....145

БИР ҲАДИС ШАРҲИ

Ота-онага яхшилик қилиш.....150



– Xitoy sun'iy intellekt, 5G va boshqa sohalarda ilg'or texnologiyalar taklif qilyapti. G'arb va boshqa subyektlar taklif etayotgan texnologiyalarga alternativ ko'paysa tanlov imkoniyati bo'ladi. Hatto, Xitoy bilan hamkorlikda milliy dasturlar yaratish tizimini yo'lga qo'yish mumkin. Bunda O'zbekistonda yetarlicha salohiyat va infrastruktura bor (Masalan, IT-Park tizimi).

– Xitoy kompaniyalari telekommunikatsiya (Huawei), energiya va transport sohaslarida faol. O'zbekiston sanoatini modernizatsiya qilish uchun bu katta imkoniyat.

Bunday xavf va imkoniyatlar sharoitida O'zbekiston uchun, nazarimizda, bir qator chora-tadbir muhim. Xususan,

Birichnidan, tavakkalliklar bor va bo'ladi. Ammobundan to'g'ri va aql bilan foydalanish orqali bartaraf etish mumkin. Faqat iqtisodiy oqilona va rentabel loyihalarga sarmoya va kredit olish, qarzga botib qolishdan saqlanish uchun qonunchilik darajasida me'yorlar (ya'ni qarz chegaralari) belgilanishi lozim.

Ikkinchidan, iqtisodiy kelishuvlarda har doim O'zbekiston manfaatlarini himoya qilish. Strategik aktivlar (masalan, portlar, yirik zavodlar) bo'yicha ehtiyotkor bo'lish lozim bo'ladi.

Uchinchidan, Xitoydan faqat tayyor mahsulot emas, texnologiya va bilim ham olish choralari ko'rish kerak. Mahalliy kadrlarni tayyorlash va mustaqil rivojlanishni ta'minlash darkor.

To'rtinchidan, faqat Xitoy emas, biz ham Xitoy iqtisodiyotida ishtirok etishimiz kerak. Masalan, Yaponiya va Koreya kabi O'zbekiston kapitali hissasi mavjud korxonalar tashkil etilishida ishtirok etish.

“Buyuk Ipak yo'li” faoliyatida ham hududimizdan o'tishiga e'tirozlar bo'lgan, lekin ming yilliklarda hech kim “xitoylashib” ketmadi. Aksincha, Samarqand, Buxoro va Toshkent shaharlarida yirik korxonalar, savdo komplekslari qurilib rivojlandi. Milliy hunarmandchilik va sanoat rivojlandi. O'shadavrlarda ham shu xitoyliklar edi, hoziram shu xitoyliklar.

Xulosa qilib aytganda, Xitoyning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi o'rni katta ahamiyatga ega va murakkab mavzudur. Xitoy global kuch sifatida yuksalishda davom etar ekan, uning mavjud xalqaro tartib uchun ta'sirini tushunish va o'sib borayotgan ta'sirini boshqarish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir. Xitoyning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi ta'siri kuchayishi bilan bog'liq muammolar va imkoniyatlarni o'rganib borish orqali u bilan munosabatlarda manfaatli yo'nalishlarni topish va boyitish imkonini beradi.

SUHROB BO'RANOV

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

ISLOM OMILINING “TOLIBON” HARAKATI PAYDO BO'LISHIGA TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afg'onistonda “Tolibon” harakatining paydo bo'lishi va rivojlanishiga islomiy omilning ko'rsatgan ta'siri tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada afg'on an'anaviy jamiyatida islomning o'rni, turli radikal va fundamentalistik g'oyalarning Afg'oniston zaminida kurtak yoyishi sabablari ochib beriladi. **Tayanch so'zlar.** Toliban, mulla, mavlaviy, muftiy, “Musulmon birodarlari”, “Musulmon yoshlari” (Javonon-e musulmon), deobandizm, Bacha-ye Saqa, “Islom ulamolari jamiyati” (Jamiyat-e ulamoi islom), vahhabizm, diniy sinkretizm.

Abstract. The article analyses the impact of Islamic elements on the formation and evolution of the Taliban movement in Afghanistan. It examines the influence of Islam on Afghan spiritual society and the factors contributing to the rise of diverse extremist and fundamentalist ideologies in Afghanistan. **Keywords:** Taliban, mullah, mawlavi, mufti, “Muslim Brotherhood”, “Muslim Youth” (Javonon-e Muslim), Deobandism, Bacha-ye Saqa, “Society of Islamic Scholars” (Jamiyat-e ulamoi islam), Wahhabism, religious syncretism.

Аннотация. В статье анализируется влияние исламских элементов на формирование и эволюцию движения Талибан в Афганистане. Рассматривается влияние ислама на афганское духовное общество и факторы, способствующие возникновению различных экстремистских и фундаменталистских идеологий в Афганистане. **Ключевые слова:** Талибан, мулла, мавлави, муфтий, «Братья-мусульмане», «Мусульманская молодежь» (Джавонон-е Муслим), Деобандизм, Бача-е Сака, «Общество исламских ученых» (Джамият-е уламои ислам), ваххабизм, религиозный синкретизм.

Kirish. 1994-yili Afg'onistonda ilk marta “Tolibon” nomi ostida paydo bo'lgan diniy-harbiy guruh dastlab jahon siyosiy sahnasi uchun alohida e'tiborga molik hodisa sifatida qabul qilinmadi. Biroq uning tez orada (1996-2001-yillar) kuchli va markazlashgan tuzilmaga aylanib, Kobul hokimiyatini nazoratga olishi ko'pchilikni taajjublantira boshladi. Shu vaqtdan e'tiboran “Tolibon” atamasi Afg'onistonga daxldor bo'lgan davlat arboblari-yu afg'onshunos siyosatdonlargacha tez-tez so'z yuritiladigan mavzuga aylandi. Ayniqsa, ushbu harakat 2021-yili Afg'onistonda hokimiyatni qayta qo'lga kiritgach, “Tolibon”ni chuqurroq tadqiq etishga bo'lgan qiziqish sezilarli darajada ortdi.



Natijada soha mutaxassisleri va olimlari tomonidan "Tolibon" harakatining paydo bo'lish ildizi, sabablari va rivojlanishi masalalari yuzasidan qator ilmiy-amaliy izlanishlar olib borish dolzarblashib ketdi.

"Tolibon" kim va ular Afg'onistonda hokimiyatni (qayta) egallash darajasidagi qudratga qanday erishdi? Yirik va mintaqaviy kuch markazlarining Afg'onistondagi strategik manfaatlarini tutashgan va uni o'z ta'sir hududi deb hisoblaydigan sharoitda "Tolibon"ni mustaqil subyekt sifatida baholash mumkinmi? Tabiiyki, mazkur savollarga xolisona javob berish mushkul bo'lsa-da, "Tolibon" harakatining paydo bo'lish sabablarini aniqlash orqali kerakli tasavvur va xulosalarni chiqarish mumkin. Bu borada dastlab diniy sabablarni tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. "Tolibon" harakatining paydo bo'lishi va unga islom omilining ta'siri masalalariga bag'ishlangan ushbu maqolada Garvard, Stenford, Kaliforniya, Prinston, Chikago, Boston va Indiana universitetlari, Rend Korporatsiyasi tahlilchilarining asarlari, ilmiy maqolalari hamda Pokiston va Eron olimlarining tadqiqotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda mavjud adabiyotlar tahlili hamda tarixiy-qiyosiy usuldan foydalanildi. Mavzuni har tomonlama ochib berish maqsadida soha olimlarining ilmiy ishlari va tahliliy markaz nashrlariga murojaat qilindi.

Tahlil va natijalar. Afg'oniston zamini tarixan turli xil dinlar, mazhablar, qabilalar va elatlar yashagan makon bo'lib kelgan. Ular gohida tinch-totuv umrguzaronlik qilgan bo'lsa, gohida bir-biri bilan kelishmay, turli nizolar va urushlarni boshdan kechirgan. Afsuski, shu paytgacha Afg'onistondagi qurolli nizo va urushlar tinchlik davriga nisbatan uzoqroq va ko'proq davom etgan. Bunday o'ziga xoslik Afg'onistonda "Tolibon" harakati paydo bo'lishi bilan bog'liq islomiy omilni tadqiq etishni taqozo etadi.

Islom dini afg'onlarning nafaqat turmush tarzi, hayot shakli, balki azaliy taqdiri hisoblanadi. Taqvodor musulmon afg'on uchun Islom hayot-mamot masalasidir. Shuningdek, taniqli diplomat, professor A.Haydarov qayd etganidek, islom omili Afg'oniston siyosiy rahbariyatining barcha turdagi qarorlarini qabul qilishida bevosita ta'sir ko'rsatuvchi muhim element hisoblanadi [22]. Afg'on jamiyatida diniy shaxslarga bo'lgan hurmat va e'tibor juda yuqori. O'zni kelganda aytish joizki, *mulla, mavlaviy, muftiy* va boshqa shu kabi diniy rutbadagilar afg'on jamiyatida davlat rahbaridan ko'ra hurmatga sazovor shaxslar hisoblanadi. Shu jihatdan, afg'on ulamolari va mullalari o'z xalqining tafakkuriga doimo ta'sir o'tkazgan. Oddiy afg'onlar uchun qishloq mullasi ma'lumot manbayi, ijtimoiy-siyosiy yangiliklar sharhlovchisi va eng muhimi, qishloqdoshiga tug'ilganidan to o'limiga qadar hamroh bo'lgan, o'z ko'rsatmalariga so'zsiz itoat ettiruvchi maslahatchi hisoblangan. Ammo afg'on jamiyati va davlatchiligining inqirozga yuz tutishida yuqorida sanab o'tilgan diniy lavozim egalarining ham o'ziga xos "hissasi" mavjud. London qirollik geografiya jamiyati a'zosi, Amir Habibulloxon davrida Afg'onistonga safar qilgan taniqli ingliz olimi Angus Gamilton "Afg'oniston" deb nomlangan fundamental asarida dindor shaxslarning afg'on davlati va jamiyatidagi destruktiv rolini baholar ekan, "...mullalar – bu qo'zg'olonchilik unsurlari ko'tarilishining yagona manbayi" [2], – deb xulosa qiladi. Ko'rinib turganidek, afg'on jamiyatida din va siyosatni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. O'tmishdan toki bugungi kungacha Islom omili barcha afg'onlarni birlashtirgan yagona diniy mafkura vazifasini bajarib kelgan. Afg'on yozuvchisi Nabi Misdoq yozganidek, har qanday islomiy me'yorlarga ko'ra afg'onlar dindor va konservativ musulmon hisoblanadi. Asrlar davomida Islom afg'on jamiyatining butun jabhasida, ayniqsa, tashqi tajovuzlarga qarshi birlashtiruvchi kuch vazifasini bajarib kelgan [5]. Holbuki, o'tgan vaqtlar davomida tashqi kuchlar afg'on jamiyatiga sotsializm, islomizm¹², liberalizm va boshqa shu kabi mafkuralarni tashqaridan kiritmoqchi bo'ldi, ammo ularning hech biri samara bermadi va afg'on xalqiga tinchlik olib kelmadi. Shundan kelib chiqib, Afg'onistonda islomning siyosiy lashuv jarayonlarini, jumladan, muxolif islomiy guruhlarning faollashuvini uchta guruhga ajratib olgan holda tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhni Misrdagi "Musulmon birodarlari" mafkurasi ta'siri ostida shakllangan islomizm tarafdorlari guruhi tashkil etadi. "Musulmon birodarlari" o'zining siyosiy maqsadlariga erishish vositasi sifatida kuch ishlatish, jumladan qurolli terror uyushtirish usullarini afzal bilgan Yaqin Sharq va musulmon dunyosidagi birinchi diniy-siyosiy tashkilot hisoblanadi [17]. Mutaxassislar "Musulmon birodarlari" diniy-siyosiy qarashlarini Afg'onistonga kirib kelish davrini XX asrning 60-yillari bilan bog'lashadi. SSSR DXQ (KGB)ning Afg'onistondagi vakolatxonasi rahbari (1980-1982-yillar), general-mayor Viktor Spolnikovning yozishicha, Afg'onistondagi dastlabki islom fundamentalistik tashkiloti 1969-yilda tashkil topgan. 1965-yil Kobul universitetining Ilohiyot fakulteti dekani, "professor" (*ustod*) G'ulom Muhammad Niyoziy tashabbusi bilan yopiq to'garak tashkil etildi. Uning a'zolari majlislarda islom "uyg'onishi", bo'lg'usi davlat qurilishi va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tartibni islomiy talablar asosida o'rnatish kabi masalalarni muhokama qilishgan. Shuningdek, muhandislik fakultetida Gulbiddin Hikmatyor, Sayfiddin Nusratyor va Habib Rahmon tarkibidan iborat shunga o'xshash yana bir fundamentalistik to'garak tashkil etildi. Muhandislik fakulteti talabalari tashabbusi bilan "birgalikda kurashish" maqsadida ikkita to'garak faoliyati birlashtirildi va 1969-yilda bo'lib o'tgan ilk yig'ilishida Afg'onistondagi birinchi fundamentalistik tashkilot – "Musulmon yoshlari" (*Javonon-e musulmon*) tashkilotiga asos solindi [21]. E'tiborli jihati shundaki, "Musulmon yoshlari" Misrdagi

¹² Islomizm (siyosiy islom) – musulmonlar yashaydigan hududlardagi davlat va jamiyat o'rtasidagi har qanday qarama-qarshilik, shuningdek, davlatlararo munosabatlar faqat shariat normalari asosida hal qilinishi zarur, deb hisoblaydigan diniy-siyosiy mafkura. Islomizm bir qator musulmon o'lkalarida tashkil topgan ekstremistik va terroristik tashkilotlarning asosiy mafkurasi hisoblanadi. Shu sababdan islom va islomizm tushunchalari bir-biridan tubdan farq qiladi.



“Musulmon birodarlari” tashkilotining mafkurasini o‘z faoliyati uchun asosiy namuna sifatida belgilab olgan edi. Chunki G‘ulom Muhammad Niyoziy, Gulbiddin Hikmatyor va Sibg‘atulloh Mujaddadiy kabi afg‘on diniy vakillari Qohiradagi Al-Azhar universitetida 1950 va 60-yillarda tahsil olib, “Musulmon birodarlari” tashkilotining g‘oyalari ta’siri ostida Afg‘onistonga qaytishgan edi. Fransuz islomshunos olimi Oliver Ruaning qayd etishicha, Afg‘onistonda muxolif islom harakatlarining kuchayish jarayoni 1958-yilda asos solingan “Islomiy jamiyat” harakati (*tahrik-e islomi yoki nihzat-e islomi*) bilan chambarchas bog‘liq. Harakatning ma’naviy rahnamosi Sibg‘atulloh Mujaddadiy guruhi asosan talabalar orasida faol targ‘ibotlarni amalga oshirish bilan shug‘ullangan. Ma’lumotlarga ko‘ra, “Islomiy jamiyat” harakati “Musulmon birodarlari” tashkilotining Said Qutb kabi radikal qarashdagi rahbarlaridan ilhomlanib, ularning diniy ta’limotlari va o‘qitish usullarini islomning zamonaviy mafkurasi sifatida Afg‘onistonda tatbiq etishni rejalashtirgan. Jumladan, Said Qutb asarining ilk tarjimai 1960-yillar atrofida Mavlaviy Xolis tomonidan “Islom va ijtimoiy adolat” nomi ostida chop etilgan [6].

Ikkinchi guruh Pokistondagi “Deobandiylik” (deobandizm) mafkurasi asosida tashkil etilgan diniy guruhlar hisoblanadi. Atoqli diplomat, sharqshunos-afg‘onshunos olim A.Haydarov ta’kidlaganidek, Afg‘onistonda yaqin vaqtgacha oliy diniy muassasa maqomiga ega madrasalar bo‘lmagan. Shuning uchun oliy diniy ta’lim olishga intilayotgan afg‘on yoshlarining katta qismi asosan Pokiston va Eron davlatlariga sayohat qilgan. Pokistonda ta’lim olganlar Pokistondagi aksariyat madrasalarda hukmronlik qiladigan Deobandiy diniy maktabining qadriyatlarini va qarashlarini aks ettiruvchi mustahkam dunyoqarash bilan vataniga qaytgan. Deobandiylik Janubiy va Janubi-G‘arbiy Osiyoda chuqur ildizlarga ega bo‘lib, islomdagi keskin oqimlardan biri sifatida tanilgan. “Tolibon”ning ko‘plab arboblari va tarafdorlari ushbu madrasalarning bitiruvchilari hisoblanadi [23]. Ayniqsa, Sovetlarning Afg‘onistonga ta’siri kuchayishi bilan mazkur diniy madrasalarning faollashuvi kuzatila boshladi. “Tolibon” nazoratidagi bir qator hududlarda bo‘lgan Lari Gudzon (Qohiradagi Amerika universiteti professori)ning tasdiqlashicha, “aksariyat “toliblar” Sovet qo‘shinlariga qarshi kurash olib borgan diniy maktab o‘qituvchilari va talabalari hisoblanardi” [20]. Mujohidlar esa antisovet “jihodi” davrida qozongan shuhratini kichik guruhlar bilan hokimiyat uchun kurashishi natijasida yo‘qotdi. Afg‘oniston bo‘yicha tarixchi va tadqiqotchi olim Tomas Barfild bu “toliblar”ga ikki yo‘l bilan norozilik yaratishga imkon berganligini qayd etadi. Birinchidan, “toliblar” antisovet urushi davrida ishtirok etgan yoshlarni o‘ziga jalb qilib, ularga “jihod”ning yangi turi – Afg‘onistonda islomning “haqiqiy ko‘rinishi”da qatnashish uchun imkoniyat berdi. Islomning “toliboncha” yo‘li tarafdorlari o‘z diniy qarashlarini afg‘on turmush-tarzining yagona yo‘li deb tasavvur qilishadi, chunki ular afg‘on jamiyatidan tashqarida diniy maktablardan saboq olgan talabalar hisoblanadi. Ikkinchidan, “toliblar” Afg‘onistonning tartibsizlik keng yoyilgan hududlarida yashaydigan norozi aholini o‘z mafkuraviy rejimining asosiy nuqtasi sifatida tanladi [1].

Deobandiylik hadislar va hanafiy mazhabining ta’limoti va huquqiy an’analariga tayanadi. Mazkur harakat asoslarining yaratilishi 1866/67-yillarda Deoband shahrida tashkil etilgan “Dorul ilm” (*Ilm uyi*) madrasasi faoliyati bilan bevosita bog‘liq. Asoschilari sifatida Muhammad Qosim Nanatavi va Rashid Ahmad Gangohining nomlari keltiriladi. Deobandiylik musulmon hukmdor bo‘lmagan mustamlaka davlatda musulmon jamiyatini isloh qilish va birlashtirishni ko‘zlagan. Deobandiy madrasalar uning g‘oyalari Janubiy Osiyo, xususan, Afg‘oniston bo‘ylab keng yoyilishida muhim rol o‘ynagan. 1879-yilda Hindistonda jami 12 ta deobandiy madrasalar mavjud bo‘lgan bo‘lsa, XX asrning 60-yillariga kelib ularning soni Janubiy Osiyoda 9000 taga yetgan [13]. Biz yuqorida zikr etgan, ya’ni XX asrning 60-yillaridan “Musulmon birodarlari”ning mafkuraviy qarashlari orqali Afg‘onistonga kirib kelgan radikal islomiy g‘oyalardan farqli ravishda, deobandiylik mafkurasi Afg‘onistonga bundan ancha avvalroq ta’sir qila boshlagan. Chunonchi, 1929-yil yanvarda Kobulni qo‘lga kiritgan Bacha-ye Saqo¹³ (keyinchalik Habibulloh Kulakoni) rahbarligidagi boshqaruv faoliyatini mustaqil Afg‘oniston tarixidagi ilk fundamentalistik harakat sifatida baholash mumkin. Chunki Habibulloh Kulakoni atigi bir yil ham davom etmagan boshqaruv davrida Omonullaxon davridagi barcha islohotlarni bekor qilib, shariat boshqaruvini joriy etdi. Jumladan, ayollar va dunyoviy maktablarning barchasi yopildi, kutubxonalar buzilib, noyob kitoblar va qo‘lyozmalar yoqib yuborildi. Shariat sudlari qayta o‘rnatilgach, Habibulloh Kulakoniyning yaqin odamlari mamlakatni talon-toroj qila boshladi. Amir buyrug‘i bilan xotin-qizlar burqa liboslarini kiyishi va qarindosh erkak hamrohlarsiz ko‘chaga chiqmasligi qat’iy belgilab qo‘yildi. Erkaklar esa soqol qo‘yishi majburiy bo‘lib, an’anaviy afg‘on kiyimlaridan tashqari kiyimlarni umumiy kiyimasligi lozim edi [19]. Ma’lumotlarda aytilishicha, Bacha-ye Saqo o‘zini avval boshdanoq afg‘onistonlik tojiklarning milliy yetakchisi sifatida emas, balki musulmon hukmdor sifatida tutgan. Shu jihatdan, Bacha-ye Saqo o‘z hokimiyati va ta’sirini nafaqat afg‘onlarga, balki butun umma, jumladan Hindiston va Sovet O‘rta Osiyosiga qadar kengaytirishni maqsad qilgan. Afg‘on tarixchisi Mir G‘ulom Muhammad G‘ubor “Afg‘oniston tarix silsilasida” kitobida Habibulloh Kulakoni afg‘onlarni Buxoroni ozod qilish uchun kurashga chaqirgani va Buxoro amiri taxtini egallashga ishtiyoqi baland bo‘lgani, shuningdek, Hindistondagi musulmonlar uchun muqaddas sanalgan sandal darvozasi Afg‘onistonga olib kelishni maqsad qilgani haqida e’tiborga molik ma’lumotlar keltirib o‘tgan [24]. Mutaxassislar baholashiga ko‘ra, Bacha-ye Saqo inglizlarning «Maxsus xizmat»i tomonidan hokimiyatga olib kelingan. U Afg‘onistondagi ingliz elchisi Hemfris bilan doimiy aloqada bo‘lgan. Chunonchi, “Daily Mail” gazetasi 1929-yilda bunday deb yozgan edi: “Hemfris Bacha-ye Saqoning hokimiyatda bo‘lishi uchun kuchli yordam ko‘rsatmoqda” [18]. Islomshunos olim Oliver Rua esa Bacha-ye Saqoning hokimiyati deobandiylik g‘oyalari bilan sug‘orilganini aniq misollar asosida tavsiflar ekan,

¹³ Bacha-ye Saqo – Suv tashuvchining o‘g‘li. Etnik jihatdan kelib chiqishi tojik millatiga mansub.



bu jarayon Afg'onistonda fundamentalizmdan islomizmga o'tish tranzitiga katta turtki berdi [7], deb ta'kidlaydi. Tarixchi olim Viktor Gilinsenning xulosasi esa ilmiy hamjamiyat uchun jiddiy qiziqish uyg'otsa ajab emas: "Asl haqiqat shundaki, Omonullaxonni radikal islomchilar – zamonaviy "Tolibon" harakatining ma'naviy rahnamolari hokimiyatdan ag'dardi"[15].

Ta'kidlash joizki, "Tolibon" harakatining diniy-mafkuraviy asosini deobandiylik g'oyalari tashkil etadi. Bunday g'oyalar Pokistonda tashkil etilib, madrasalarda o'qitilgan diniy ta'lim va uning natijasida yuzaga kelgan diniy-siyosiy partiyalarning ta'siri ostida "Tolibon"ning shakllanishiga xizmat qildi, deb aytishga asos bo'ladi. 1947-yilda Pokiston davlati tashkil topgandan keyin deobandiy madrasalar Afg'oniston hududida ham paydo bo'la boshladi. Professor I. Boboqulovning qayd etishicha, 1947-yildan keyin ushbu maktab qarashlari va amaliyoti, ayniqsa, pushtun hududlarida keng tarqala boshladi. Shuningdek, Mavlono Fazlur Rahmon va Samiul Haqning "Islom ulamolari jamiyati" (*Jamiyat-e ulamoi islom*) sa'y-harakati bilan asosiy deobandiy madrasalar mustaqil qabilalar hududida tashkil topgan. Shubhasiz, ularning eng mashhuri va yirigi Xaybar Paxtunxva viloyatining Akora Xattak shahridagi Samiul Haqning "Dorul ilm Haqqoniya" madrasasi hisoblanadi. Afg'on mujohidlarining yetakchi vakillari Yunus Xolis, Muhammad Nabi Muhammadiy, Jaloliddin Haqqoniy va boshqalar mazkur madrasa bitiruvchilari hisoblanadi. 1999-yilda "toliblar" hukumatining sakkizta vaziri va o'nlab gubernatorlari, qozilari, harbiy qo'mondonlar "Haqqoniya" madrasalarining bitiruvchilari bo'lishgan. O'n yillar davomida bepul ta'lim, oziq-ovqat va boshpana taqdim qilgan ushbu madrasalar afg'on qochoqlari uchun muhim ta'lim maskani bo'lib kelgan. Aynan ularning talabalari ("toliblar") 80-yillarda mujohidlar uchun, 90-yillarda "Tolibon" harakati uchun ijtimoiy baza bo'lib xizmat qilgan [16]. 1994-yilning dekabriga kelib "Islom ulamolari jamiyati"dan chiqqan 12 ming nafar afg'on va pokistonlik yosh talabalar Qandahorda "Tolibon" tarkibiga qo'shilgan [8]. Shuningdek, yana bir diniy tashkilot – "Islom jamoati" (*Jamoat-e islomiy*) partiyasining ham "Tolibon" harakati mafkurasi shakllanishiga qo'shgan "hissasi" ancha katta. 1941-yilda Britaniya Hindistonida tashkil etilgan ushbu partiyaning asoschisi Abul a'la al-Mavdudiy bo'lib, u "Musulmon birodarlari" tashkilotining diniy ta'limoti bilan bir qatorda islomizm (siyosiy islom) g'oyalarning asoschilaridan biri sifatida tanilgan. Britaniya razvedka xizmati (MI6)ning Afg'on bo'limida 13 yil davomida Ma'lumotlar koordinatori sifatida ishlagan, Yaqin Sharq, Islom va Afg'oniston bo'yicha taniqli mutaxassis Peter Marsden Al-Mavdudiyning islomizm g'oyalari "toliblar"ning diniy motivlariga katta turtki berganini quyidagicha izohlaydi: "Tolibon" harakati o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsad va vazifalarida Mavdudiyning ta'sirini yaqqol ko'rish mumkin. "Tolibon"ning G'arb qadriyatlariga nisbatan hech qanday murosada bo'lishi mumkin emasligi, aksincha G'arb "Tolibon" o'zi uchun qabul qilgan qadriyatlar tizimini hurmat qilishi va unga moslashishi kerakligiga qaratilgan chuqur ishonchi aynan Mavdudiy ta'limotidan ilhomlangan. Ayniqsa, Mavdudiyning ayollarni ijtimoiy hayotdan mosuvo qilishga oid o'ta konservativ qarashlari "Tolibon" tomonidan qo'llanilgan mafkuraviy tamoyillarga asos bo'lib xizmat qilgan" [3]. Pokistonlik professor Ahmad Hasan Doniyning ishonch bildirishicha, Pokistondagi diniy madrasalarda tahsil olgan "toliblar" islomning axloqiy qoidalariga rioya etmayotganlarga qarshi "jihod" olib borish uchun tayyorlangan [4]. Tabiiy ravishda, "toliblar"ning aksariyati Afg'onistondagi ijtimoiy nochor qatlam vakillarining yetim qolgan farzandlaridan tashkil topgani ham ulardagi radikal mafkuraviy ozuqaning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. "Tolibon: madrasadan hokimiyatga" nomli kitobda tavsiflanishicha, "Afg'on "toliblari" "Pokistonni ham, Qummi ham" hech qachon ko'rmagan oddiy qishloq yigitlari bo'lishgan. Shu sababdan, madrasalar "toliblar"ga oziq-ovqat va boshpana bergan, ta'lim esa ularning yashashi uchun asosiy manba hisoblangan. Bu holat ularni o'quv yillari davomida jismoniy va ma'naviy qiyinchiliklarga bardosh berishga, shuningdek, harbiy tayyorgarlikdan o'tishga majbur qilgan. Natijada "toliblar"ning hayotga bo'lgan ishonchi ularning diniy-siyosiy qarashlari bilan muvofiq kelmaydigan barchaga qarshi "muqaddas urush" olib borishga undagan" [12].

Uchinchi guruh. Yuqoridagi ma'lumotlar "Tolibon" harakatining tub negizi deobandiy madrasalarining ta'limotlariga borib taqalishini tasdiqlashga imkon bersa-da, Saudiya Arabistonining siyosiy mafkurasi sifatida ko'riladigan vahhobiylik ta'limotlari ham qisman "toliblar"ning diniy maslaklariga ta'sir ko'rsatgan, deb hisoblash mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, Sovet qo'shinlarining Afg'onistonga kiritilishi arafasida ancha kuchaydi. Garchi o'sha vaqtlarda vahhobiylik mafkurasi dastlab afg'on mujohid qatlamlariga singdirilgan ta'limot bo'lsa ham, keyinchalik deobandiylik va vahhobiylik elementlari bir-birini to'ldirib, "toliblar"ga o'rgatiladigan o'ziga xos salafiy oqimga aylandi. Chunonchi, 1982-yili Saudiya Arabistoni ko'magi bilan Abdulrab Rasul Sayyof tomonidan Peshovarda tashkil etilgan "Afg'oniston ozodligi islomiy ittifoqi" afg'on diyorida vahhobiylik qarashlarini keng tarqatishda "jonbozlik" ko'rsatdi. Ma'lumki, Abdulrab Rasul Sayyofning o'zi salafiylik tarafdori sifatida tanilgan. Saudiyaning Pokistondagi elchisi tomonidan taqdim etilgan 1984-yildagi diqqatni tortadigan bir ma'lumotga ko'ra, elchi Saudiya Arabistoni Bosh vaziri, shahzoda Abdulla nomidan Abdulrab Rasul Sayyofga 10 mln. dollar pulni "sovg'a" qilgan [11]. Yangi Dehlidagi tahlil markaz Vivekananda xalqaro jamg'armasining xavfsizlik masalalari bo'yicha eksperti Sumya Avasthining "Hindistonning deobandiy talqini klassik xususiyatga ega bo'lsa, Afg'oniston va Pokistondagi shakli neodeobandiylikdir (Neo-deobandi)", deb ta'kidlagan ilmiy fikr-mulohazalari mulohaza va munozaraga chorlaydi. Olima bunday nomlashning sababini izohlar ekan, "chunki u islomning haqiqiy tamoyillaridan yiroqlashib, vahhobiylik unsurlarini o'zida aks ettiradi" [10], deb xulosa qiladi. "Tolibon" tadqiqi bilan shug'ullangan pokistonlik taniqli mutaxassislardan biri Ahmed Rashid ham o'zini salafiy deb ataydigan "afg'on vahhobiyolari" haqida so'z yuritib, ularning mafkurasi oddiy afg'onlar tomonidan xushlanmasligi natijasida Afg'oniston bo'ylab keng tarqalmaganini o'z asarida qayd qilgan [9]. Garchi, "Tolibon" vakillarining



aksariyati o'zining diniy muddaolarini vahhobiylik oqimi bilan bog'lama-da, ular tomonidan joriy etilgan tartib-qoidalar va amaliy xatti-harakatlar buning aksini ko'rsatadi. Masalan, musiqa va radio tinglash, televizor ko'rish kabi zamonaviylikka xos barcha yangiliklar vahhobiylik ta'limoti singari bid'at deb taqiqlanishi, Afg'onistondagi turli diniy muqaddas qadamjolarining buzib tashlanishi, jumladan, Bomiyondagi qadimiy Buddha ibodatxonasining portlatib yuborilishi, hazora shialariga nisbatan toqatsizlik hamda "Al-Qoida" xalqaro terroristik tashkiloti bilan o'rnatilgan yaqin aloqalar yuqorida aytib o'tgan fikrlarimizni ma'lum ma'noda tasdiqlaydi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinib turganidek, "Tolibon" harakati paydo bo'lishining diniy ildizlari ancha tarixiy va tabiiyki, "Musulmon birodarlari", "Deobandiylik" yoki "Vahhobiylik" kabi radikal diniy qarashlardan ilhomlangani xususida turli xil ilmiy bahslarni keltirib chiqaradi. Shunday bo'lsa-da, bizning nuqtayi nazarimizga ko'ra, "Tolibon" harakati kelib chiqishining diniy-g'oyaviy asosini deobandiylik ta'limoti tashkil etadi. Qolgan radikal qarashlar esa, tashqi omillar ta'siri bilan "Tolibon" mafkurasi uchun faqat to'ldiruvchi vazifasini bajargan. Shu nuqtayi nazardan, Afg'onistonda diniy radikal guruhlarning, jumladan, "Tolibon" harakatining kelib chiqish sabablarini etno-diniy sinkretizm fenomeni bilan ifoda qilish maqsadga muvofiq.

Umuman, o'tgan davr mobaynida Afg'onistonda vujudga kelgan o'tkir ijtimoiy-siyosiy inqiroz, shuningdek, ushbu diyorning o'zida sof islomiy oliy ta'limni rivojlantirishga qaratilgan imkoniyatlarning yaratilmasligi va tashqi kuchlar ta'siri natijasida afg'on jamiyatining an'anaviy islomiy qadriyatlariga zid bo'lgan "toliboncha" islom modeli ishlab chiqildi.


FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Barfield Thomas. Afghanistan. A cultural and political history. – Princeton University & Oxford, 2010. – P. 256-257.
2. Hamilton Angus. Afghanistan. – London, 1906. – P.480.
3. Marsden Peter. The Taliban: War and Religion in Afghanistan. – London, Zed Books Ltd. 2002. – P.81-82.
4. Matinuddin Kamal. The Taliban phenomenon: Afghanistan 1994-1997. – New York. Oxford University Press, 1999. – P.22.
5. Nabi Misdaq. Afghanistan. Political frailty and external interference. – London, Routledge. 2006. – P.32.
6. Olivier Roy. Islam and Resistance in Afghanistan. Cambridge University Press (second edition), 1990. – P.70.
7. Olivier Roy. Islam and Resistance in Afghanistan. Cambridge University Press (second edition), 1990. – P.68.
8. Rashid Ahmed. Taliban: Islam, Oil and the New Great Game in Central Asia. – London. I.B.Tauris Publishers, 2000. – P.29.
9. Rashid Ahmed. Taliban: The Power of Militant Islam in Afghanistan and Beyond. – London. I.B.Tauris, 2010. – P.85.
10. The Taliban's ideology has surprising roots in British-ruled India. September 8, 2021. <https://www.npr.org/2021/09/08/1034754547/taliban-ideology-roots-deobandi-islam-india>
11. Washington Post. 1987, May 11.
12. Белокреницкий В.Я., Сикоев Р.Р. Движение Талибан и перспективы Афганистана и Пакистана. – Москва. Институт Востоковедения РАН, 2014. – С.18-19.
13. Бобокулов И.И. Афғонистон. Луғат-маълумотнома. – Т.: "Complex Print", 2021. – Б.87.
14. Бобокулов И.И. Афғонистон. Луғат-маълумотнома. – Т.: "Complex Print", 2021. – Б.88.
15. Бойко В.С. Власть и оппозиция в Афганистане: особенности политической борьбы в 1919-1953 гг. – М.:2010. – С.141-142.; Гиленсен В.М. Банды под зеленым знаменем. Басмачество в Таджикистане в 20 – начале 30-х гг. и советско-афганские отношения. – Военно-исторический журнал, 1999, № 5. – С.30.
16. Бобокулов И.И. Афғонистон. Луғат-маълумотнома. – Т.: "Complex Print", 2021. – Б.88.
17. Ёвқочев Ш.А. Исламской фактор в политической системе современного Египта. – Т.: Ташкентский исламский университет, 2008. – С.138.
18. Кассис В.Б., Колосов Л.С. Из тайников секретных служб. (Империализм: события, факты, документы) – М.: Мол. Гвардия, 1981. – С.220.
19. Кича Мария. Афганистан: подлинная история стран-легенды. – Москва, Эксмо. 2023. – С.201.
20. Сикоев Р.Р. Талибы: религиозно-политический портрет. – Москва, 2004. – С.24.
21. Спольников В.Н. Афганистан: исламская оппозиция. Истоки и цели. – Москва, Наука. 1990. – С.15-16.
22. Хайдаров А.А. Влияние исламского фактора на советско-афганские отношения (1978-1990 гг.). Автореферат на соискание ученой степени кандидата исторических наук. – Москва, 1991. – С.3.
23. Хайдаров А.А. Мусульманское духовенство vs. власть в современном Афганистане: взгляд из Узбекистана // Вестник РУДН. Серия: Международные отношения. 2020. Т. 20. № 4. – С.756.
24. مير غلام محمد غبار. افغانستان در مسیر تاریخ. مرکز نشر انقلاب. ۱۳۶۸-ص. ۸۲۷.



DUNYODA ILMDAN BOSHQA NAJOT YO‘Q VA HECH QACHON BO‘LMAGAY.

Imom Buxoriy



Telegram: @bukhariuz | @buxoriysaboqlari



E-mail: buxoriysaboqlari@bukhari.uz